

XAYRIDDIN SULTON IJODIDA ZAMON KISHISINING KO'NGIL KECHINMALARI TASVIRI

Inoqova Nozima Bahodir qizi,

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

inoqovanozima@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola yozuvchi Xayriddin Sultonov asarlaridagi qahramonlar ruhiyati, kechinmalari va hayotda uchraydigan turfa voqeliklarning yozuvchi asaridagi badiiy aksi haqida bo'lib, inson tuyg'ularining so'z orqali chizilgan jonli tasviri tahlilga tortilgan. Maqolada adibning "Ishonch telefoni", "Ko'ngil ozodadur", "Yozning yolg'iz yodgori" qissalari tahlilga tortilib ulardagi qahramonlar hayotida uchraydigan turli muammolar, chigal vaziyatlar real hayotning aksi o'laroq tasvirlangan.

Kalit so'zlar: qahramon, ruhiyat, kechinma, qissa, zamonaviylik, konflikt, janr, sujet.

Annotation. This article discusses the artistic reflection of the characters' inner world, emotions, and various life realities in the works of the writer Xayriddin Sultonov. The paper analyzes the vivid portrayal of human feelings expressed through literary language. The stories "Ishonch telefoni" ("Hotline"), "Ko'ngil ozodadur" ("The Soul is Free"), and "Yozning yolg'iz yodgori" ("The Lonely Memory of Summer") are examined, highlighting various problems and complicated situations encountered in the lives of the characters as a reflection of real life.

Keywords: character, psychology, emotion, novella, modernity, conflict, genre, plot.

Аннотация. Данная статья посвящена художественному отражению внутреннего мира героев, их душевных переживаний и различных жизненных реалий в произведениях писателя Xayriddin Sultonov. В статье анализируется живое изображение человеческих чувств, созданное посредством художественного слова. Рассматриваются повести "Ishonch telefoni" ("Телефон доверия"), "Ko'ngil ozodadur" ("Душа свободна") и "Yozning yolg'iz yodgori" ("Одинокое воспоминание лета"), в которых различные проблемы и сложные жизненные ситуации, встречающиеся в судьбах героев, изображены как отражение реальной жизни.

Ключевые слова: герой, психология, переживание, повесть, современность, конфликт, жанр, сюжет.

Kirish. "Ko'ngil Allohning nazargohidir" degan hikmat sharqona tafakkur va tasavvuf falsafasida inson qalbining naqadar ulug' va muqaddas ekanini ifodalaydi. Insonning botiniy olami, ruhiy kechinmalari va ma'naviy qiyofasi eng avvalo uning ko'nglida namoyon bo'ladi. Shu bois mumtoz adabiyotda bo'lgani kabi zamonaviy adabiyotda ham ko'ngil masalasi badiiy talqinning markaziy obyektlaridan biri sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa Xayriddin Sultonov asarlarida inson qalbidagi nozik tuyg'ular, ruhiy iztiroblar, mehr, sadoqat va armonlar o'ziga xos badiiy mahorat bilan yoritiladi. Adib qahramonlar ruhiyati orqali jamiyatdagi ma'naviy muammolar, insoniy munosabatlar va hayot haqiqatlarini ochib berishga intiladi.

Adabiyotlar sharhi. Mahoratli yozuvchi X.Sultonov asarlarida ham xuddi shu kabi ichki kechinmalar, qahramonlar ruhiyati, chigal vaziyatlar va ularning personaj kayfiyatiga ta'siri kabi ruhiy tasvir o'rinlari juda ko'p uchraydi. Xususan, adibning "Ishonch telefoni", "Ko'ngil ozodadur", "Yozning yolg'iz yodgori" va boshqa asarlarida obrazlarning psixologik holati, ko'ngil kechinmalari, qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlar shu qadar jonli

tasvirlanganki, o'qirmanning hissiyotlari benihoya asar qahramoni bilan birga harakatlanadi. Birga kuladi, birga yig'laydi, muammoga birga yechim qidirishga harakat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyotshunos Abdulla Ulug'ov yozuvchining obraz yaratish mahorati haqida shunday deydi: "Xayriddin Sultonov asarlarida hayotdagi oddiy hodisalar qalamga olinadi. Kishilarning kundalik hayoti, tashvishi, intilishlari, o'zaro munosabatlari haqida hikoya qilinadi. Yozuvchi qissa, hikoyalari uchun, asosan, oddiy odamlarni qahramon qilib oladi. Ularning ruhiy kechinmalarini ishonarli va ta'sirchan gavdalantiradi" [1:5].

Tahlillar va natijalar. Xayriddin Sultonov ijodining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, yozuvchi inson qalbining eng nozik qatlamlarini tabiiy va ta'sirchan tasvirlashga intiladi. Adib asarlarida voqealarning keskinligi emas, balki qahramonlarning ana shu voqealarga bo'lgan ruhiy munosabati muhim o'rin egallaydi. Shu sababli yozuvchi yaratgan obrazlar kitobxoniga yaqin va ishonarli tuyuladi. Ayniqsa, "Ishonch telefoni" qissasida inson qalbidagi yolg'izlik, tushunilishga bo'lgan ehtiyoj va ruhiy iztiroblar chuqur psixologizm asosida yoritilgan bo'lsa, "Yozning yolg'iz yodgori" asarida inson xotiralari, armon va sog'inch tuyg'ulari badiiy mahorat bilan aks ettiriladi. Adib qahramonlarining ichki kechinmalarini tasvirlashda ortiqcha balandparvozlikka berilmaydi, aksincha, oddiy hayotiy detallar orqali katta ma'naviy mazmuni ochib beradi. Natijada yozuvchi asarlaridagi ruhiy tasvirlar o'quvchini befarq qoldirmaydi, uni qahramon taqdiri bilan hamnafas yashashga undaydi.

Yozuvchining yaqin yillarda nashrdan chiqqan va kitobxonlar e'tiboriga tushib ulgurgan qissasi "Ishonch telefoni" ham ijodkorning o'ziga xos tarzda yozilgan asarlaridan biri bo'lib, ushbu asar asli qissa janrida bo'lsa ham unda boshidan oxirigacha suhbat – diologdan foydalanilganligi uchun unda drama unsurlari bor, degan xulosaga keldik.

Bilamizki, lirikada janrlar modifikatsiyasi – bir she'r unsurining boshqasiga ko'chishi uchrab turadi. O'rganishlarimiz davomida shunga amin bo'ldikki, X. Sulton ijodida ham drama janrining xususiyatlari nasrga ko'chib, ajoyib "adabiy mahsulot" yaratilgan. Bu esa o'z-o'zidan ushbu mahoratli ijodkorning naqadar serqirra qalam sohibi ekanligiga dalolat bo'ladi. Adib ushbu asarida ham boshqa asarlarida bo'lganligi kabi insonning qalbiga, kechinmalariga murojaat qiladi. Uning dard-u hasratlarini yaqqol namoyon qilish orqali o'quvchiga qahramon ruhiyati, psixologiyasini tanishtiradi.

Ma'lumki, psixologik tasvirning badiiy ishonchliligi personaj ruhiyati va kechinmalarining hayotiy, tabiiy hamda ishonarli ifodalanishiga bog'liq. Bu jarayonda qahramon nutqi, ichki monolog, xotira bilan bog'liq epizodlar, muallif pozitsiyasining darajasi, shuningdek, vaqt va makonning subyektiv idrok etilishi muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ana shu omillar orqali personajning ichki dunyosi, ruhiy ziddiyatlari va hissiy kechinmalari chuqurroq ochib beriladi. "Ishonch telefoni" qissasida ham bosh qahramon operator qiz – Mohigul Ismatova va uning atrofiga birlashtirilgan turli

personajlarning holati, vaziyati, dard-u alamlari, kechinmalari va boshqa ko‘plab hayotiy muammolar fonida bugungi zamon muhitini, ayni paytda yashab turgan olamimizning bir parchasida ro‘y berayotgan hodisalarning badiiy in‘ikosi yozuvchi tomonidan aniq yoritib berilgan.

Ushbu asar haqida yozuvchining o‘zi shunday deydi: “Hayotda yuz bergan, o‘zim bevosita guvohi bo‘lgan, bir-biridan g‘aroyib, turli voqea-hodisalar beixtiyor yodimga tushdi. Ularning har biri “Meni yoz!”, “Yo‘q, avval meni yoz!”, deb navbat talasha ketdi.

Ochig‘i, bu paytda katta bir asar ustida ishlayotgan edim, lekin qulog‘imda yangrayotgan ajabtovur ovozlari, shovqin-suronlar menga tinchlik bermay qo‘ydi. Yozayotgan kitobimni chetga surib, eshitganlarim va ko‘rganlarimni eslashga, bu hikoya-hangomalarni oqqa ko‘chirishga, ularga badiiy shakl topishga qanday kirishib ketganimni o‘zim ham sezmay qoldim.

Bir mahal qaragam, shu tariqa “Ishonch telefoni” deb nomlangan qo‘lyozma paydo bo‘libdi[2:23].

Qissani mutolaa qilish davomida operator qizga telefon qilib, turfa muammolariga yechim qidirgan turli epizodik obrazlarning va ularning xilma-xil hikoyalarining guvohi bo‘lamiz. Adibning asarni bunday ko‘p tarmoqli syujet tarzida yozishi kitobxonning asardan zerikib qolmasligini, keyingi voqealar nima bo‘larkin, yana qanday muammolar bilan odamlar murojaat qilisharkin, deya o‘qishiga zamin hozirlaydi. Bu esa bugungi raqamlashib borayotgan dunyoda kitobxonlarni kitobga qiziqishini oshirishning biri sababi bo‘ladi, shubhasiz. “Xayriddin Sultonning “Ishonch telefoni” bu zamonning, hukumat idoralarining rasmiy muloqot vositasi emas. U garchi shakli bir bo‘lsa-da, mazmun-mundarijasiga ko‘ra adabiyotning “ishonch telefoni” – badiiy izhori, iqrori, ko‘ngil maydonchasi”, degan edi kitob so‘zboshisida adabiyotshunos Shuhrat Rizayev.

Shu bilan birga, psixoanalitik va fenomenologik yondashuvlar ham bunday tasvir mohiyatini izohlashda muhim nazariy asos bo‘la oladi. Ular yordamida badiiy matnda shaxsning yashirin istaklari, bostirilgan his-tuyg‘ulari, qo‘rquv va aybdorlik kechinmalari ramziy hamda majoziy shakllarda namoyon bo‘ladi. Bu esa psixologik tasvirning badiiy-estetik va mazmuniy qatlamlarini yanada teranroq ochishga imkon beradi.

Zamon kishisini tasvirlash o‘zbek adabiyotida faqat “ijtimoiy tip” yaratish vazifasi bilan cheklanmay, shaxsning ichki insoniy qadr-qimmatini, ma‘naviy o‘zagi va ruhiy muvozanatini sinovdan o‘tkazadigan hayotiy vaziyatlar orqali ko‘ngil kechinmalarining nozik spektrini ko‘rsatishga yo‘naltiriladi. Bunday yondashuv, o‘z navbatida, adabiyotning antropotsentrik mohiyatini, ya‘ni insonni ma‘naviy-axloqiy mezon sifatida markazga qo‘yish tamoyilini mustahkamlaydi. Xuddi shu tamoyillarning amalda yoritilgan namunasi esa X.Sultonovning “Ishonch telefoni” qissasida juda ko‘plab uchraydi. Misol uchun hukumat idorasiga muammosini aytib telefon qilgan Maqsuda opa, Gulsara, Choriqul, Qobilov, Oygul, Umid, Behro‘z, Telman aka, Elzod Eminov, Asal opa, Ilhom Soliyev, Mahbuba kabi odamlarning turli muammolar bilan operatorga murojaat qilishlari bugungi

kundagi jamiyatning ma'naviy ahvoli, dard-tashvishlari kabi jihatlar yaqqol yoritib berilgan.

O'zbek adabiyotida ruhiy-psixologik tasvirning ildizlari mumtoz adabiy merosdagi ishqi-yirfoniy qarashlar va "ko'ngil" konseptining badiiy-falsafiy mazmuni bilan ham uzviy bog'liq. Ko'ngil Sharq poetikasida faqat emotsional maydon emas, balki ma'rifat, idrok, axloqiy tanlov, ruhiy poklanishning ramziy makoni sanaladi. Shuning uchun zamonaviy nasrda ham "ko'ngil kechinmalari"ni tasvirlash ko'pincha an'anaviy semantik qatlamlar bilan dialogga kirishadi va yangi ijtimoiy tajribani qadimiy ruhiy-axloqiy kodlar bilan qiyoslab boradi. Bu jarayonni tushuntirishda roman nazariyasi doirasidagi qarashlar, xususan, polifoniya va "ovozlar" kurashi, qahramon ongining mustaqilligi masalasi ham muhim. Zamon kishisi ko'pincha bir ovozli, muallif tomonidan yakka haqiqat sifatida boshqariladigan figura emas, balki turli ijtimoiy-axloqiy manfaatlar tutashgan, ichki dialog va o'z-o'ziga qarshi munozara orqali mavjud bo'ladigan murakkab subyekt sifatida ko'rinadi. Xayriddin Sultonning asarlarida ham xuddi shu kabi inson va uning ko'ngli birinchi o'ringa qo'yilgan bo'lib, qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, orzu-intilishlari hamda hayotiy qarashlarini chuqur psixologik tasvir orqali yoritiladi. Yozuvchi uchun insonning tashqi harakatlari emas, balki uning qalbida kechayotgan murakkab jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli asarlarda qahramonlarning ko'ngil kechinmalari, ruhiy olami jonli ifodalanadi. Bu esa Hazrat Navoiy davridan beri ulug'lanib kelayotgan, barcha asarlarning markazida turadigan Allohning nazargohi – ko'ngil tushunchasining ushbu ijodkor ijodida ham naqadar yuksak baholanganing yorqin isbotidir.

Bugungi o'zbek nasrining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, inson ruhiyati jahon adabiyotidagi modern uslublar hamda milliy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligi asosida tasvirlanmoqda. Bir tomondan, qahramonning ichki kechinmalari va shaxsiy xotiralari tahlili chuqurlashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy an'analar va axloqiy mezonlar hamon uning ruhiy dunyosini muvozanatda tutib turuvchi asosiy omillar bo'lib qolmoqda. Natijada zamon kishisini tasvirlashda badiiy diqqat ijtimoiy faoliyatdan ko'ra ko'proq ma'naviy-hissiy reaksiyalarga, ichki jarayonlarning orzu, armon, kechirim, pushaymon, umid va shukr kabi holatlarga ajralishiga qaratiladi. Bularning barchasi esa ruhiy-psixologik va ko'ngil kechinmalarini tahlil qilishni nafaqat estetik, balki madaniy muammo sifatida ko'rishga undaydi. Shu jihatdan Xayriddin Sulton ijodi zamon kishisi ruhiy olamini ifodalashning o'ziga xos poetikasini ko'rsatish uchun qulay ilmiy maydon yaratadi, chunki uning nasriy matnlarida voqea bayoni ko'pincha qahramonning ichki kechinmalari bilan teng vaznda turadi, ya'ni syujet harakati bilan psixologik holat bir-birini to'ldiradi. Adib adabiyotimizga yangi mavzular, yangi qahramonlar olib kirdi, uning personajlari nihoyatda tabiiyligi, hayotiyliigi, milliyliigi va zamon bilan makonning uzviyligi bilan ajralib turadi. Xayriddin Sulton qissalarida insonning qalb kechinmalari, ruhiy tug'yonlari milliylikka yo'g'rilgan holda tasvirlanadi. Adib o'z oldiga insonning

qalb kechinmalarini, qalb sirlarini yechishni maqsad qilib qo'yadi. Personajlar haqida so'zlar ekan, ular haqida, ularning hayoti haqida batafsil hikoya qilish yo'lidan bormaydi, balki qahramonlar boshidan kechirgan eng murakkab vaziyatni yoki mana shu vaziyatga daxldor voqeani oladi va shu asosda xarakter yaratadi. Ularning xatti-harakatlari, ichki kechinmalari psixologik jihatdan asoslanadi, personajlar nutqi shunday mahorat bilan beriladiki, kitobxon beixtiyor qahramonlarning samimiyligiga ishonadi.

Xayriddin Sulton qissalarida obrazlar o'ziga xos yo'sinda tasvirlanadiki, adib oddiy voqea-hodisalar zamiridagi nozik jihatlarni ilg'ab, ularga muhim ma'no-mohiyat yuklaydi. Milliy ma'naviyatga daxldor, xalqning o'lmas udum va an'alariga oid muammolar o'ziga xos yo'sinda ifodalab beradi.

Adibning qahramon tanlashdagi mahorati ham tahsinga loyiq desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ular hayotga endigina qadam qo'ygan yosh yigit-qizlar, bolalar, umri poyoniga yetayotgan chollar, qariyalar, xokisor, goho jur'atsiz va kamsuqum insonlardir[3:37].

Xayriddin Sulton qalamiga xos badiiy uslubiy belgilar sifatida detallashtirilgan kuzatish, lirik-psixologik intonatsiya, tilning sofligi va ma'no tejamkorligi, ichki monologga yaqinlashuvchi muallifona mulohaza, shuningdek, odatiy hayot epizodlarida ham axloqiy sinov va ruhiy burilishni ko'ra bilish qobiliyati namoyon bo'ladi. Bular zamon kishisining "ichki biografiyasi"ni yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday "ichki biografiya" tushunchasi adabiyotshunoslikda personaj hayot yo'lining tashqi faktlaridan ko'ra, uning ichki o'zgarishlari, ma'naviy o'sishi yoki ruhiy yemirilish bosqichlarini ifodalashga xizmat qiladi. Demakki, Xayriddin Sulton nasrida zamon kishisi qiyofasi ko'pincha "qanday yashadi" degan savoldan ko'ra "qanday his qildi" va "qanday tanlov qildi" savollari atrofida quriladi.

Xayriddin Sulton qahramonlarining ko'ngil kechinmalari ko'pincha ikki yo'nalishda tasvirlanadi: birinchi yo'nalish ijtimoiy muhit bilan shaxsiy orzu-umidlar o'rtasidagi nomuvofiqlikdan tug'iladigan ichki ziddiyat bo'lsa, ikkinchisi axloqiy mezonlar bilan hayotiy manfaat to'qnashganda yuzaga keladigan vijdon sinovidir. Shu o'rinda "zamon kishisi"ni ijtimoiy rol va maqomlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zida davrning ruhiy-axloqiy bosimini jamlagan, shu bosim ostida o'zini anglash va o'zligini saqlab qolishga urinadigan subyekt sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Qahramon ruhiyati ko'pincha bevosita "katta voqealar" bilan emas, balki "kichik vaziyatlar"ning ichki aks-sadosi bilan ochiladi: oila ichidagi nozik munosabat, ota-ona oldidagi qarzdorlik hissi, farzand tarbiyasidagi mas'uliyat, do'stlik va sadoqatning sinovi, mehnat va halollikning qiymati, muhabbatning sokin, ammo chuqur iztirobi kabi holatlar personajni ichkaridan "siljitadi". Ana shunday silkinishlar tasvirida badiiy matnning psixologik fazosi kengayadi, chunki o'quvchi qahramonning o'zini oqlash va o'zini ayblash o'rtasida qolgan ichki dialogini kuzatadi. Bu esa psixologizmning ichki konfliktga asoslangan modeliga mos keladi.

Xulosa. Xayriddin Sulton ijodini o‘zbek adabiy jarayonidagi umumiy kontekstga joylashtirganda, zamon kishisini ruhiy-psixologik jihatdan tasvirlash tamoyili XX asr ikkinchi yarmida kuchaygan insonparvar realizm va lirik nasr yo‘nalishlari bilan hamohang ekani ko‘rinadi. Bunda voqea ko‘lamining kichrayishi evaziga ruhiy ko‘lamning kengayishi sodir bo‘ladi. Bu kengayish personajning ichki sezgirligi, ko‘ngil ko‘zining o‘tkirligi, hayotiy mayda signallarni ham ma’naviy mezon sifatida qabul qilishi orqali beriladi.

Zamon kishisi sharoitning mahsuli bo‘lish bilan birga, o‘sha sharoitga nisbatan ichki qarshilik, ichki murosasizlik yoki ichki moslashuv strategiyalarini ishlab chiqadi. U ko‘pincha tashqi jihatdan oddiy ko‘rinadi, ammo ichkarida murakkab ma’naviy ishlov jarayoni kechadi. Mazkur jarayonni tahlil qilishda subyektivlik tushunchasi muhim. Adabiy matnda subyektivlik qahramonning dunyoni idrok etishi, baholashi, his qilishi va til orqali qayta qurishi bilan bog‘liq bo‘lib, zamon kishisi aynan shu subyektivlik orqali davr muammolarini yashab ko‘radi. Shu ma’noda, Xayriddin Sulton nasrida zamon kishisining ruhiy-psixologik qiyofasi davrning statistik portreti emas, balki davrning hissiy portreti, davrning ko‘ngil harorati sifatida talqin qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sultonov Xayriddin. Ishonch telefoni. – Toshkent: “Mashhur-press”, 2024.
2. Sultonov Xayriddin. Ko‘ngil ozodadur. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Sultonov Xayriddin. Yozning yolg‘iz yodgori. – Toshkent: Sharq, 2007.
4. Ulug‘ov A. 2023. “Xayriddin Sulton asarlarida hayot hodisalarining aks ettirilishi”. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik* 2(2)
5. Adilova, F. 2023. “Xayriddin Sulton qissalarida milliy ruh va obrazlar poetikasi”. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik* 2 (2)